


“TASDIQLAYMAN”



Samarqand davlat veterinariya
meditsinası, chorvachilik va
bioteknologiyalar universiteti rektori,
professor X.B.Yunusov

2024-yil “ ” -avgust

Agrar sohadagi oliy ta'lif muassasalari qoshidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini ushbu oliy ta'lif muassasalariga yakka tartibda suhbat o'tkazish orqali o'qishga qabul qilishning baholash mezoni

1.Abituriyentning yakka tartibdagi suhbat natijalari 20 ballik tizimda baholanadi.

Bunda, abituriyentga 4 ta savol beriladi hamda ushbu savollarning har biri besh ballik tizimda baholanadi.

Abituriyent yakka tartibdagi suhbat natijalari bo'yicha 11 balldan kam ball to'plagan hollarda uning bilimi "qoniqarsiz" deb baholanib, yakka tartibdagi suhbatdan o'tmagan deb hisoblanadi.

2.Suhbat komissiyasi abituriyentlarni quyidagi mezonlarga asosan baholaydi:

berilgan savollarga to'liq va aniq, shuningdek asoslab javob berishi, agrar faoliyat sohasi bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi, ulardan mustaqil foydalanishni bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi - **5 ball;**

-berilgan savollarga aniq javob berishi, biroq javobni asoslab berolmasligi, agrar faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga ega bo'lishi, ulardan mustaqil foydalanishni bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni tahlil qila olishi - **4 ball;**

-berilgan savollarga to'liq javob berolmasligi, agrar faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga ega bo'lishi, ulardan foydalanishni bilishi - **3 ball;**

-berilgan savollarga noaniq javob berishi, agrar faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga ega bo'lishi, ulardan foydalanishni bilmasligi - **2 ball;**

-berilgan savollarga javob bera olmasligi, agrar faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga yetarli darajada ega emasligi - **1 ball;**


-berilgan savollarga umuman javob bera olmasligi, agrar faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga umuman ega emasligi - **0 ball.**

3.Yakka tartibdagi suhbat natijalarini aniqlash uchun Suhbat komissiyasi a'zolari mustaqil ravishda ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi baholash varaqalarini to'ldiradi va ularni suhbat komissiyasi kotibiga taqdim etadi.

Bunda, suhbat komissiyasi kotibi abituriyentga suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarni hisoblab chiqib, o'rtacha ballni chiqaradi.

4.Yakka tartibdagi suhbat natijalari u o'tkazilgan kunning o'zida abituriyentlarga e'lon qilinadi va suhbat komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadigan, komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan yig'ilish bayonnomasida qayd etiladi.

Suhbat komissiyasi kotibi

 **X.T.Boymurodov**